

YANGI KONSTITUTSIYA EKOLOGIYA HIMYOYACHISI

Rahmatova Asalxon Ulug‘bek qizi

Farg‘ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Ekologiya yo‘nalishi 23.60 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishining tarixiy zaruriyatiga bag‘ishlanib, undagi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish zaruriyati hamda majburiyatlariga oid masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, atrof-muhit, Yangi O‘zbekiston, “Avval inson keyin jamiyat”, tabiiy boyliklar, 49, 62, 66, 68, 115-moddalar.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi xalqimizning evolyusion rivojlanishidan hosil bo‘lgan hayotiy zarurat hisoblanib, uning qabul qilinishi tinchliksevar mamlakatimiz xalqining ijtimoiy adolatga asoslangan ko‘p millatli demokratik fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidagi dadil qadam, bundan keyin amalga oshiriladigan harakatlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masalalardan biri deb aytsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish zarurati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida to‘xtalib o‘tgan. Xususan, davlat rahbari Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida quyidagilarni alohida ta’kidlagan edi: “Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog‘onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o‘zgarishi kerak. Agar shunday qilmasak, muammolarni ko‘rib, ko‘rmaslikka olsak, zamondan orqada qolamiz. Xalqimiz, yosh avlodimiz bizdan rozi bo‘lmaydi. Shu bois, “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat” degan g‘oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo‘lmaydigan xavfxatarlarni yengib o‘tishga qodir bo‘lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur”

ADABIYOTLAR SHARHI

Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘ngi yillarda davlatimiz erishgan yutuqlarni, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, so‘z va e‘tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi ko‘plab cheklovlarning olib tashlangani yuzaga keladigan muammolar hal qilingani, qo‘shni davlatlar bilan oramizdagi 25 yillik “muzlar erigani” va boshqa amalga oshirilgan ijobiy harakatlarning konstitutsiyaviy himoyasini ta’minlash zarur. Erishilgan bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan faqatgina hozirgi yoshlar emas, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun ularni albatta, Konstitutsiya

orqali mustahkamlab qo'yish talab etiladi. Quvonarli jihati shundaki, bugungi kunda mamlakatimiz har jihatdan rivojlangan davlatga aylanib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan yangi konstitutsiyaning qabul qilinish zaruriyati tushuntirilganda butun Respublika aholisi birdamlik bilan bu jarayonni qo'llab-quvvatladilar.

Konstitutsiyada bitilgan dastlabki "Biz, O'zbekistonning yagona xalqi" deyilgan birlashgan undov qatorida tabiatni muhofaza qilish haqida ham va'dalar mavjud.

"Mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib" degan va'da butun O'zbekiston xalqining qonun, millat oldidagi ahdnomasidir. Ushbu mazmundan kelib chiqib Konstitutsiyaning bir qancha moddalarida ekologiya va atrof-muhitni himoya qilishga oid majburiyatlar, vazifalar tayinlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasining ikkinchi xatboshida **"Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi"**¹ deb belgilangan. Hozirgi kunda urbanizatsiyaning dunyo aholisiga olib kelayotgan katta ekologik muammolari barchamizga kundek ravshan. Shaharlarning kengayishi yerlarning qisqarishi, quyoshlanishning kamayishi, ekinzorlarning tobora yuqolib borishi demakdir. Ushbu jarayonni nazorat qilinishini davlat xalqning ixtiyoriga topshirmoqda va bunga sharoit yaratishni konstitutsiyaviy qonun etib belgilamoqda. Bu esa Konstitutsiyani naqadar xaqilchil, adolatli qomus ekanidan dalolat beradi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ayni modda bu Konstitutsiyaning 62-moddasidir. Unda O'zbekiston Respublikasi har bir fuqorosiga qaratib **"Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar"** deyilgan. Bu qonunga itoat qilmagan har bir fuqoro qolganlarga zarar yetkazishi mumkinligini inobatga olib tegishli choralar ko'riladi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66,68,115-moddalarida ham atrof muhit va ekologiyani muhofaza qilish, asrab avaylashga qaratilgan normalar aks ettirilgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Har bir inson xoh fuqoro bo'lsin xoh fuqoro bo'lmasin o'zi yashaydiga muhitni toza, ozoda saqlashi darkor. Zero bu ona tabiat bizdan keyingiz avlodlarimizga sog'lom

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145>

holatda meros qolmog‘i darkor. Bizning qonunchiligimiz esa ushbu jarayonni tartibga solgan va har bir fuqoro uchun bu qonunlar dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida 2023 yil 8-may PF-67-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6461609>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2022 yil 21 dekabr, № 272.
3. Saidov A. Yangilanayotgan Konstitutsiya – chinakam xalq konstitutsiyasi, Yangi O‘zbekistonni barpo etishning huquqiy poydevori // <https://pravacheloveka.uz/oz/news/m9471>
4. Yangilanayotgan Konstitutsiya. – Toshkent: Taraqqiyot Strategiyasi Markazi, 2023.